

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHI QIZLARIDA IJTIMOIIY FAOL SHAXS SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Akbarova Gulidabonu Lutfillo qizi

Andijon viloyati Shahrixon tumani 10 – maktab

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7223289>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayrim boshlang'ich sinf o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi.

Kalit so'zlar. Yoshlar, vatanga sadoqat, burch, mas'uliyat, tashabbuskorlik, fazilatlar, iroda, matonat, tirishqoqlik

Аннотация: В данной статье у некоторых учащихся начальных классов не сформированы высокие цели, самомотивация к учебе, отсутствие воли, усидчивости, усидчивости, недостаточное развитие двигательных качеств.

Ключевые слова. Молодость, верность стране, долг, ответственность, инициатива, добродетели, воля, упорство, настойчивость

Annotation: In this article, some primary school students have not formed high goals, self-mobilization to study, lack of will, perseverance, perseverance, insufficient development of motor qualities.

Keywords. Youth, loyalty to the country, duty, responsibility, initiative, virtues, will, perseverance, perseverance

Bugungi kundagi amalga oshirilayotgan globallashuvning tobora avj olishi tarbiyaga yangicha tizimli yondashuv asosida qizlardagi ijobiy fazilatlarini shakllantirishda oila, maktab va jamiyat o'rtasida ilmiy-metodik uzviylikni yuqori pog'onalarga ko'tarishni talab etadi.

Respublikamizda qizlarni sog'lom va barkamol avlodni shakllantirish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son qaroriga ko'ra, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi" qabul qilindi. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi" da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, xotin-qizlarda jamoatchilik, siyosat, huquq-tartibot, ishlab-chiqarish, ta'lim, sanoat,

tadbirkorlik, boshqaruv sohalarida o'ziga ishonchni hamda faollikni oshirishni taqozo etadi. SHundan kelib chiqib, har bir millatning kelajagini ta'minlashda qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. boshlang'ich sinf o'quvchi qizlarida ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati aniqlangan va "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi"ning gender pedagogik imkoniyatlari hamda qizlar tarbiyasining milliy-pedagogik negizlari ochib berilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev: **"Ma'lumki, har qanday mustaqil davlat mustahkam ma'naviy poydevorga ega bo'lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi.** SHu maqsadda biz "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi" doirasida umumta'lim maktablarida birinchi marta "Tarbiya" fanini joriy etmoqdamiz"¹, - deya ta'kidladi. Darhaqiqat, mamlakatimiz yoshlarini Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlarini shakllantirish orqali mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, ayrim o'quvchi yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatayotganligini kuzatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 1-mh son buyrug'i bilan 2018 yil 18 iyul kuni O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari tasdiqlangan. Unda 1- sinfga qabul qilingan o'g'il-qizlar o'zlarida quyidagi malaka, ijtimoiy kompetentsiyalar kompleksini mujassam qiladi. Bu esa uzviylikni ta'minlash uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi buni yaxshi bilishi va "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi"²ning III bosqichida tarbiyaviy jarayonni izchil davom ettirishi zarur bo'ladi.

Maktabda qiz bolalarning jismoniy va psixik imkoniyatlari orta boradi. O'qituvchi qiz bolalarning, xilma-xil faoliyatida xarakterning ijobiy sifatlarini, malaka va odatlarni tarkib toptiradi, ulardagi mustaqillik, faollik hamda kreativlikni o'stiradi. O'quvchilarni tabiat, tevarak-atrof bilan tanishtirish, ona tili mashg'ulotlarida, ekskursiyalar hamda sayrlarda, badiiy adabiyot va

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

www.dissercat.com

²"Узлуksиз маънавий тарбия Концепцияси". - Т.: 2019.-Б. 12.

hokazolar vositasida bolalarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Vatan himoyachilariga muhabbat hamda hurmat, jonajon Vatan, qadrdon tabiatga mehr, boshqa xalqlarga nisbatan do'stona his-tuyg'ularni tarbiyalash ishi davom ettiriladi, shuningdek, davlat gerbi va bayrog'iga hurmat tarbiyalanadi. Pedagoglarda qizlardagi jamoaviylik hissi va jamoada o'zini tuta bilish ko'nikmasini tarbiyalab, ularga birga o'ynash, mehnat qilish uchun birlashishni, ahillik bilan, kelishib yashashni, o'z harakatlarini bir-birlari bilan moslashtirib olishni hamda bir-birlariga ko'maklashishni o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflarda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontsepsiyasi"da ko'zda tutilgan tayanch fazilatlar va ularga yondosh xislatlarni tarbiyalashning III bosqichi amalga oshiriladi. Ya'ni mas'uliyat, mustaqillik, bag'rikenglik, o'zaro kelishib olish, ishni bajarish jarayonida vazifalarni taqsimlash, ahillik bilan, tez, batartib ishlash, bir-biriga ko'maklashish ko'nikmalari takomillashadi.

Biroq, o'rganish natijalari boshlang'ich sinf qizlarda ijtimoiy faol shaxs fazilatlarini tarbiyalashda o'qituvchi bilan oilalar, mahalla fuqarolar yig'inlari raislarining "Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari bilan hamkorligi, ota-onalarning pedagogik madaniyati, qiz bolalarda salbiy odat, sifatlar shakllanishining oldini olish, ularni qarovsiz qoldirish, huquqbuzarlik holatlari paydo bo'lishining oldini olishda qator pedagogik muammolar qayd qilindi. Jumladan, Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik hamda boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda ularning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayotgani, buning oqibatida yoshlarning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'layotgani, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontsepsiyasi". - T.: 2019.-B. 12.
3. Bakiyeva M.K. O'quvchi qizlarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishda oilaning ta'siri // "O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim" mavzusidagi Respublika ilmiy konferentsiya materiallari. Qo'qon, 2020.